

DAVR TALABIGA MOS YURIST: ZAMONAVIY HUQUQSHUNOSNING CHEKSIZ MAS'ULIYATI

Rajabova Shakarjon Nuraddin qizi

O`zMu yurisprudensiya fakulteti

2-kurs talabasi

Yuristlar har doim hurmatga sazovor kasb egalari bo'lgan, lekin ularning jamiyatdagi ta'siri ko'proq idoralarda, sudlarda yoki davlat tizimida namoyon bo'lgan. Shuningdek yuridik axborot asosan qonunlar to'plami kitoblari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy nashrlari, va ba'zida CD-disklarda tarqatilgan huquqiy bazalar orqali olinardi.

Bugungi kunda dunyo tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan bir davrda yashayapmiz. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, xalqaro integratsiya, yangi qonunchilik islohotlari -bularning barchasi zamonaviy yuristlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Endilikda oddiy huquqiy bilimga ega bo'lish yetarli emas. Kuchli bilim, keng dunyoqarash va yangiliklarga ochiqlik - zamonaviy yuristning asosiy fazilatlaridir.

Zamonaviy yuristga qo'yilayotgan talablar davr o'zgarar ekan, kasblar oldiga qo'yilayotgan talablar ham o'zgaradi. Ayniqsa, yuristlik kasbida bu o'zgarishlar ancha keskin va murakkabdir. Zamonaviy yurist quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi zarur:

1. Yuqori huquqiy saviya – qonunchilik bazasini chuqur o'rganish, yangi qonun va me'yorlarni tezda o'zlashtira olish.
2. Tahliliy fikrlash - har bir huquqiy vaziyatni tahlil qila olish va to'g'ri huquqiy yechim taklif qila olish qobiliyati.
3. Axloqiy poklik va mas'uliyat - adolat va halollik yuristning asosiy mezonlaridan bolishi shart.

4. Innovatsion va texnologik ko'nikmalarga ega Raqamli davr yuristdan zamonaviy texnologiyalarni egallashni talab qiladi. Elektron hujjat aylanishi, "E-sud", "LexUZ", xalqaro huquqiy axborot bazalaridan foydalana olish zarur.

5. Muloqot madaniyati va ijtimoiy faollik —yurist jamiyat bilan ishlaydi, shuning uchun u muloqotga kirishuvchan, ochiq va faol bo'lishi zarur.

Oldin yuristlar ko'proq nazariy bilim va hujjatlar bilan ishlash orqali faoliyat olib borgan. Ular jamiyatda hurmatga sazovor bo'lsa-da, faoliyati ko'proq yopiq muhitda kechgan. Bugungi kunda esa yurist — bu faqat qonunni biladigan emas, ijtimoiy, texnologik, global tafakkurga ega, doimiy o'qiydigan va o'z ustida ishlaydigan kompleks mutaxassis. Ularning roli kengaygan: konsalting, xalqaro huquq, internetda yuridik kontent yaratish, kabi sohalarga ham kirib kelgan.